

MILLIY G‘OYANI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISHDA PSIXOLOGIK TRANSFORMATSIYALANISHI

Karimov Farxod Toshtemirovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti psixologi

Annotatsiya: Millatning rivojlanishida milliy g‘oya beqiyos ahamiyatga ega. Milliy g‘oya millatning ichki rivojlanishi va kelajak sari intilishi hamda kurashlarining markazida bir kuch bo‘lib, millatning qaysi yo‘llar va qaysi maqsadlar orqali olg‘a intilishini ta‘minlaydi. Milliy g‘oya sog‘lom fikrlaydigan har bir shaxs va fuqaroda milliy g‘urur-iftixor, or-nomusni uyg‘otadigan, o‘zlikni anglatadigan, xalqning maqsadi va orzu umidlarini ro‘yobga chiqishiga kuch-qudrat beradigan, millatni harakatga keltiradigan qudratli omildir. Shu boisdan milliy g‘oyaning transformasiyon jarayonlariga uchrashi natijasida barkamol insonlar ongida ezgulikka yo‘g‘rilgan bunyodkor g‘oyalarning yanada shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qilishi lozim. Shundagina biz istiqbolda milliy g‘oya asosida barkamol insonni, sog‘lom fikrlaydigan avlodni tarbiyalashga erishamiz. Zero, jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: Tendensiya, intellektual, internet, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikatsiya, global, urf-odat, an‘ana va qadriyatlar, barkamol, komil inson, ommaviy madaniyat, demokratiya, taxdid.

PSYCHOLOGICAL TRANSFORMATION OF THE NATIONAL IDEA IN THE CONSCIOUSNESS OF THE YOUTH

Abstract: In the development of the nation, the national idea is of invaluable importance. The national idea is the force that underlies the internal development of the nation, its aspirations and struggle for the future, ensuring which ways and what goals it moves forward. The national idea is a powerful factor that awakens in every sane person and citizen national pride, self-esteem, gives strength to the realization of the goals and dreamy hopes of the people, moves the nation. In this regard, the process of transformation of the national idea should serve to further form and develop creative ideas embedded in the minds of harmoniously developed people. Only then will we be able to raise a literate person, a sane generation based on the national idea in the future. After all, one of the priorities of our society is the education of a harmoniously developed generation.

Keywords: Trend, intellectual, Internet, social networks, communication, global, traditions, traditions and values, harmonious, perfect person, mass culture, democracy, threat.

KIRISH

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodlarni g'oyaviy himoya qilish, buzg'unchi g'oyalarga qarshi turishda Birinchi Prezident I.A.Karimov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ogohlikka da'vat etuvchi asarlari, ma'ruzalari, nutqlari va tashabbuslari xalqimiz ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish hamda makkor g'oyalardan ogohlantirishda, ularga qarshi kurashish uchun ma'naviy qurol va himoya uchun ma'naviy qalqon bo'lib kelmoqda. Shunga qaramay bu kabi yot bo'lgan turli mafkuraviy xurujlarning yoshlarimiz ongi, va ichki dunyosini egallashga qaratilgan harakatlari tobora kuchayib, keng quloq yoymoqda. Bu haqda fikr yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qudagilarni ta'kidlaydilar: "Barchamizga yaxshi ma'lumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarimoqda. Insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Jahon miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar, savdo urushlari g'oyat keskin tus olmoqda"[1], -deya qayd etgani bejiz emas albatda. Darhaqiqat, mazkur xurujlardan yoshlarimizni asrash va ularga qarshi turish hamda kurashishni umumdavlat ahamiyatiga molik vazifa qilib qo'yilmoqda. Shu bilan birgalikda, milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan yana biri bu, aholini, avvalambor, yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongi, qalbi va ichki dunyosiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lish orqali transformatsiya o'zgarishlari sodir bo'lmoqda. Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonasining umumbashariy yutuqlariga erishmog'iga yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Binobarin, inson ongli mavjudot, uning ongini shartli ravishda ikkita katta qismga bo'lish mumkin: birinchisi - insonning ruhiy olami; ikkinchisi - fikriy olami, ya'ni tafakkur olamidir. G'oya odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elat va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

Zero, har qanday g'oyaning asosida bilim yotadi. Bilimlarning g'oyaga aylanishi uchun *birinchidan*, o'rganilayotgan hodisa yoki voqea haqidagi bilimlarning aniq bo'lishi, bilimlar hodisada, voqeada, jarayonda bo'layotgan o'zgarishlarni aniq va to'la aks ettirgan bo'lishi, *ikkinchidan*, to'plangan bilimlarni amaliyotga qo'llash uchun ehtiyoj, ya'ni zaruriyatning ortib borishi, *uchinchidan*, bilimlarni ishlab chiqargan kishilarni jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar yoki tabiiy muhitda vujudga kelgan muammolarni tezroq bartaraf etish uchun o'z oldilariga qo'ygan maqsad-vazifalari aniq rejalari puxta ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Yangi ishlab chiqilgan g'oyalar faqat moddiy vositalar yordamida emas, balki insonning ruhiy, ma'naviy energiyasi yordamida ham amalga oshishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, milliy g'oya ham mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oyalar odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Shu tariqa esa mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud milliy g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi. Zero, milliy g'oya kundalik ishlarimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda, xolis beminnat jamoatchilik ishimizda kuchimizgach, g'ayratimizga g'ayrat qo'shib, haqiqatdan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bag'ishlab, ruhimizni baland, belimizni baquvvat qilishi kerak. Shundagina yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosida milliy g'oyani shakllantirishning murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida transformasiya o'zgarishi sodir bo'ladi. Bu jarayonda esa uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi muhim rol o'ynaydi. Bunga esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasini zamon talablari asosida yangi bosqichga ko'tarish masalasiga doimo ustuvor ahamiyat qaratib kelmoqda. Davlatimiz rahbari bu xaqda to'xtalib shunday degan edi: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[2] deya ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, milliy g'oyani yoshlarning ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirishda ta'lim-tarbiya tizimi eng muhim va ta'sirchan omil hisoblanadi. Bugun zamonning o'zi milliy g'oya fanini o'qitishda transformasiya o'zgarishi orqali chuqur optimallashtirish jarayonlarini amalga oshirishni talab etmoqda.

Milliy g'oya jamiyatlar kurashidir. U fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanadi. Shu bilan "davlat mafkurasidan" tubdan farq qiladi. Milliy g'oya mamlakat oldida turgan yuksak maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyatdagi har bir odamni

birlashtirishga, safarbar etishga, jipslashtirishga, millatni millat, xalqni xalq qilishga xizmat qiladi. Milliy g'oyamiz o'zida xalqimizni birlashtiradigan oliy maqsadlar sari, ajdotlardan avlodlarga asrlar davomida, yuraklardan-yuraklarga o'tib kelgan, ezgu orzu-armonlardan va niyatlarini o'zida mujassam qiladi. Bu xaqda birinchi Prezident I.A.Karimov quydagicha ta'kidlaydi: "Milliy g'oya deganda, ajdotlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlanib kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilishi va umid-maqsadlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz"[3] deb keng manoda so'z yuritgan. Darhaqiqat, millatning rivojlanishida milliy g'oyaning o'rni beqiyos ahamiyatga ega. Milliy g'oya millatning ichki rivojlanishi va kelajak sari intilishi hamda kurashlarining markazida bir kuch bo'lib, millatning qaysi yo'llar va qaysi maqsadlar orqali olg'a intilishini ta'minlash orqali transformatsiyaga uchraydi. Natijada "transformasiya" barcha sohalardagi kabi milliy g'oya fanining rivojiga ham bevosita ta'siri ko'rsatadi. Fikrimizni davom ettirib, "transformasiya" terminining ma'nosiga e'tibor qaratsak: *Transformasiya – (lot. o'zgarish, aylanish) totalitar siyosiy tizimlarning demokratik siyosiy tizimlarga o'zgarishi jarayoni*[4]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, transformasiya – "qayta o'zgarish", "qayta hosil bo'lish" jarayoni ekan, milliy g'oyaning transformatsiyaga uchrashi natijasida esa undagi sifatli o'zgarishlar sodir bo'ladi va u doimo davom etadigan, hech qachon to'xtamaydigan jarayon bo'lib XX asr tugab XXI asr boshlarida ham kuchaydi. Transformasiya – qiyofaning o'zgarishi bo'lib, hozirgi o'zbek xalqining milliy madaniyatiga chetdan kirib kelayotgan turli darajadagi madaniy yangiliklar ko'proq axborot kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimining ijtimoiy tarmog'i, turli tovarlar yoki zamonaviy san'at namunalari orqali kirib kelmoqda. Ushbu yangi madaniy jarayonlar milliy g'oyamiz rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global o'zgarishlar davrida milliy g'oyaning yoshlar ongida transformatsiyalanishi quyidagi dolzarb jixatlarga ega:

Birinchidan, yoshlarda mustaqil fikrning mavjudligidagi turli-tumanlik bilan bog'liq. Bunda o'zining mustaqil fikriga, g'oyasiga ega yoshlar bilan ayrim fikrni fikrdan farqlamaydigan mustaqil fikrga ega bo'lmaganligi sababli, globallashtirilgan dunyoda kuchayadigan ma'naviy tahdidlarning ta'siriga tushib qoladigan "taqlidchan" yoshlar ham uchrab turganligi o'ziga xos muammodir.

Ikkinchidan, ayrim yoshlar ongida milliy g'oyaning negizlaridan uzoqlashish, milliy madaniy meros, urf-odat, an'ana va qadriyatlarni hayotdagi ahamiyatini

yetarlicha baholamaslik, qadriga yetmaslik holatlari uchramoqda. Ayrim yoshlar orasida ma'naviy qadriyatlarni emas, ortiqcha moddiy sarf-xarajatlar bilan bog'liq qadriyatlarning jozibasi, buyumparastlik ustun bo'lib qolmoqda.

Uchinchidan, global o'zgarishlar davrida axborot xuruji va mafkuraviy kurashlarda, hamda "ommaviy madaniyat"ning ta'siri orqali yoshlar ongida transformasiyaga uchrashi bilan bog'liq. Bunga milliy g'oyaning asosiy tushunchalari, g'oya va maqsad tamoyillariga tayangan holda "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaxolatga qarshi – ma'rifat bilan javob berish[5]" imkoniyatini yaratadi.

Bugungi global o'zgarishlar davrida yoshlar ongining o'zgarishi va transformasiyaga uchrashi natijasida xarqanday jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tendensiyalarida quyidagi jihatlarga ham alohida e'tibor qaratish zarur:

Birinchidan, ta'lim tarbiya jarayonida jaholatning barcha ko'rinishlarini mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirib borish va unga qarshi choralar dasturini ta'limiy jarayonga uyg'un holda yo'lga qo'yish lozim.

Ikkinchidan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish jarayonida milliy an'ana va qadriyatlardan keng foydalanish, shuningdek bu jarayonda milliy an'ana va qadriyatlarni kamsitilishiga yo'l qo'yimaslik zarur.

Uchinchidan, jaholatga qarshi kurash vositasi sifatida oila, mahalla va ta'lim muassasalari institutlarida yoshlarni o'z kelajagiga yo'naltirishi uchun johillik sifatlarini inkor eta oladigan komil inson qiyofasini shakllantirish kerak.

To'rtinchidan, jaholatning salbiy illatlarini namoyish etish va boshqa usulardagi targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

Beshinchidan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishda ijtimoiy-madaniy faoliyat texnologiyalarini to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalana olish lozim.

Shundagina milliy g'oyada xalq, millat, davlat qaysi yo'nalishda rivojlanishi, uning istiqboli, yaqin kelajagi, orzu-istak, umid-ishonchi o'z ifodasini topish orqali yoshlar ongida transformatsiyalanish jarayonlari sodir bo'ladi. Milliy uyg'onish, milliy tiklanish, milliy taraqqiyot konsepsiyasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish davrida milliy o'zlikni anglash bilan sintezlashuvi va uning bugungi turmush tarzimiz hamda tafakkurimiz taraqqiyotida namoyon bo'lishi, sivilizasiyasi transformatsiyalanishga uchraydi.

Ma'lumki, milliy g'oya yoshlarni faollikka, fidoyilikka, jonni kuydirib, tinmay ishlashga da'vat qiluvchi vosita. Milliy g'oya sog'lom fikrlaydigan har bir yosh-avlod ongida milliy g'urur-iftixor, or-nomusni uyg'otadigan, o'zlikni anglatadigan, xalqning maqsadi va orzu umidlari ro'yobga chiqishiga kuch-qudrat beradigan, millatni harakatga keltiradigan qudratli omildir. Shunday ekan, milliy g'oyani Vatan tuyg'usidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Aynan shuning uchun ham muayyan bir mamlakatda yashayotgan xalqning taqdiri va kelajagi shu davlat va jamiyat rivojiga

bog‘liq ekanini chuqur anglatish, bu tuyg‘uni ularda amaliy harakatga, hayot tarziga aylantirish milliy g‘oyaning eng muhim xususiyatidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, milliy g‘oya jahon tarixida xalqlarning yuksalishi ularning ma‘naviy, g‘oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular aynan milliy g‘oya asosida murakkab sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan. Milliy g‘oya ularni Vatanga bo‘lgan sadoqati, ma‘naviyati va madaniyatini yuksaltirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etgan. Natijada, rivojlangan demokratik mamlakatlarda milliy g‘oya taraqqiyotga undovchi kuch sifatida xalqlarning azaliy milliy qadriyat va xususiyatlariga bog‘lab singdirilgan. Uning qudratli mafkuraviy ta‘siri mamlakat aholisini umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtirgan. Shu bois ham, O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ko‘p millatli xalqimizning yagona milliy g‘oyasi dunyo ijobiy tajribasining nafaqat ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy-axloqiy jihatlarini, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalardagi, jumladan, shaxsning intellektual salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog‘liq muhim yutuqlarini ham o‘zida mujassam etadi.

Shu bilan birga milliy g‘oya O‘zbekistonning tarixiy, madaniy, ilmiy va falsafiy manbalaridan oziqlanadi, hamda bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoga mos ravishda o‘sib, takomillashib boradi. Zero, milliy g‘oya xalqning buyuk mutafakkir va allomalari, davlat va jamoat arboblari, atoqli ijodkor va ziyolilarining qarashlari, boy ma‘naviy-ma‘rifiy merosining ana shunday negizlarini tashkil etadi.

O‘z navbatida milliy g‘oya xalqning dunyoqarashi, tarixiy o‘zligi va milliy tarbiyasining ma‘naviy manbai sifatida yosh avlod ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish orqali transformatsiyalanish jarayonlari sodir bo‘ladi.

“Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy istiqlol g‘oyasining ishlab chiqilishi O‘zbekistonda mustaqillikni asrash, mamlakat xavfsizligini saqlash, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda xalqni birlashtirishga xizmat qildi.

Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi tamoyillar murakkab o‘tish davrida mamlakatimiz hududiy yaxlitligi, sarhadlarimiz daxlsizligini saqlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash, jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlik muhitini qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi”[6].

Bugungi kunda milliy g‘oya targ‘iboti oldiga fuqarolar dunyoqarashini boshqarish emas, balki yoshlar taffakurini boyitish, yangi ma‘no mazmun bilan to‘ldirish vazifalari qo‘yildi. Yoshlarning tafakkur rivojida transformatsiyalanish jarayonlari sodir bo‘lishi orqali o‘zgarib borishi, ong, qalb va tuyg‘u tushunchalarining qisman yoki butunlay transformatsiyaga uchrashi, biz o‘qigan, tasavvur qilgan, komil inson tushunchasining bugungi tahlili, birinchidan, komillik qiyofasini zamonga nisbatan, davr va muhit ichida, ijtimoiy hayot bilan bog‘liq holda tasavvur qilishga

asoslanadi. Ikkinchidan, komil inson qiyofasiga nisbatan, hayotiy tajribalar ko‘lami va odamiylik sifatlarining umumlashgan yoki xususiylashgan shakllarida ko‘rishimiz mumkin bo‘ldi. Va nihoyat, uchinchidan, inson komilligining ahamiyatiga nisbatan, komillik darajasiga yaqinlasha olgan shaxsning o‘z davriga, zamonasiga, millati, xalqi, Vatani va butun insoniyatga nafi yoki ma‘naviy ozuqasi salmog‘i bilan belgilandi.

Shunday ekan, milliy g‘oyaning transformasiyon jarayonlariga uchrashi natijasida insonlar ongida ezgulikka yo‘g‘rilgan bunyodkor g‘oyalarning shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qilishi lozim. Zero, bunyodkorlik g‘oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi: tenglik, vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, tinchlik, ozodlik, hurfiylik, do‘stlik, birodarlik, bag‘rikenglik, taraqqiyot kabi tushunchalarni o‘zida mujassamlashtirayotgan, eng ezgu g‘oyalari sifatida yashab kelmoqda.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytmoqchimizki, taraqqiyot istiqbollari ko‘p jixatdan yoshlarimiz irodasi milliy g‘oya atrofida nechog‘lik yaxshi jipslashganiga bog‘liq. Milliy g‘oyamizni yo‘qotsak o‘zimizni va o‘zligimizni yo‘qotamiz. Aksincha milliy g‘oyamizni tobora yuksaltirib borsak, kelajagi buyuk bo‘lgan O‘zbekiston davlatining taraqqiyotiga, hamda farovonligiga erishamiz. Shu boisdan, milliy g‘oyani xar bir inson, ayniqsa yoshlarning qalbi, ongi va ichki dunyosiga singdirish ularda ma‘naviy, axloqiy, tarbiyaviy sifatlarni xar tomonlama rivojlantirish orqali transformatsiyalash, bugungi kunning davr talabidir. Ushbu ishlarni amalga oshirishda milliy g‘oya va ma‘naviyat sohasida faoliyat olib borayotgan hodimlarning targ‘ibot-tashviqot samaradorligini yanada oshirishi muhim o‘rin tutadi. Buning uchun esa targ‘ibot-tashviqot ishlarining rang-barang, ta‘sirchan usullarini joriy qilib, yoshlarni biz istayotgan faoliyat turiga jalb qilish va g‘oyaviy tarbiyada ko‘proq ko‘rgazmalilikka, undan ham ko‘proq-yoshlarning o‘zlari bevosita ishtirok etadigan amaliy mafkuraviy ishlariga jalb qilishimiz kerak. Shundagina biz istiqbolda milliy g‘oya asosida har tomonlama kamol topayotgan yoshlarimizni tarbiyalashga erishamiz. Bu esa bugungi kunning davr talabidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. <http://uza.uz/oz/politics/konstitutsiya-va-onun-ustuvorligi-u-u-iy-demokratik-davlat-v-07-12-2019>

2. Mirziyoyev Sh. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2019. –B.145-146.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” T.: “Ma’naviyat”. 2008. B-52.
4. Raximov S., Tashmetov T.X. Milliy g‘oya: Savollar va javoblar “O‘quv qo‘llanma” T.: “O‘zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi” 2021. B-180
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch- T.: “Ma’naviyat”. 2008.B-86
6. <https://regulation.gov.uz/uz/document/10558> O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi.